

BO‘LAJAK MUTAXASSISLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA  
QADRIYATLAR TIZIMIDA KADRLARNI TAYORLASH

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport” kafedrasida o‘qituvchisi.

**Imomov Asliddin Abdurazoqovich**

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar, jismoniy madaniyat va sport” kafedrasida katta o‘qituvchisi.

**Mirzayev A‘zam Xudaynazarovich**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bo‘lajak kichik pedagoglarni kasbiy-ma’naviy faoliyatga tayyorlashda qadriyatlar tizimini shakllantirish, uning mazmunini o‘quv rejaga kiritilgan fanlar bloklari dasturlariga kiritish tamoyillari bilan bog‘liq masalalar, milliy qadriyatlar asosida o‘quv-tarbiyaga jarayonini tashkil etish orqali kichik pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda umumkasbiy fanlar bloklarining ahamiyati yoritiladi.

**Аннотация:** Использование системы ценностей для подготовки младших кадров к профессиональной деятельности.

В статье освещаются вопросы, связанные с формированием системы ценностей в целях подготовки будущих младших кадров к профессиональной и духовной деятельности.

**Annotation:** Usage of the value system in preparing the future specialists for the professional activity. This article is about forming the system of values in preparing the future specialists to professional activity.

**Kalit so‘zlar:** ma’naviyat, ma’naviy yetuk, bo‘lajak mutaxassislar, milliy-ma’naviy meros, qadriyatlar, o‘quv reja, fanlar, «Ustoz-shogird odobi», ma’naviy-ma’rifiy asoslar, qadriyatlar tizimi, mexanizm, kasbiy-ma’naviy yetuk.

**Ключевые слова:** духовность, духовно-развитый, будущие специалисты, национально-духовное наследие, ценность, учебный план, дисциплины.

**Keywords:** spiritual, spiritual, future Specialists, national Spiritual heritage, values, curriculum.

Jamiyatimiz taraqqiyotining hozirgi holati bo‘lajak mutaxassislarni ma’naviy jihatdan yetuk, intellektual salohiyatli va kasbiy barkamol qilib kasbiy faoliyatga tayyorlashni talab qilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy **maqsad** milliy qadriyatlar tizimini shakllantirish, ular mazmun-mohiyatini bo‘lajak kichik pedagoglar ongi va qalbiga singdirish orqali ularning ma’naviy dunyoqarashini yanada yuksaltirishdan iboratdir. Ushbu sohada olib borgan ilmiy izlanishlarimiz natijalarining ko‘rsatishicha, ta’lim mazmunini muntazam ravishda qadriyatlar haqidagi ma’lumotlar bilan boyitib borish, bo‘lajak pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali natijalarga erishishga imkon beradi.

Buning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida ushbu yo‘nalishlardagidek faoliyat yuritishga to‘g‘ri keladi:  
- bo‘lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda unga muvofiq ravishda milliy-ma’naviy qadriyatlarga oid ma’lumotlar qamrovi va hajmini loyihalashtirish. **Bunda** mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash o‘quv rejasidagi fanlar mos milliy-ma’naviy va milliy-moddiy qadriyatlarga oid materiallarni to‘plash, ulardan fanlarni o‘qitishda foydalanish loyihalashtiriladi;  
- bo‘lajak pedagoglarning ma’naviy dunyoqarashini boyitish mexanizmini ishiab chiqish. **Bunda** ularni kasbiy faoliyatga tayyorlash bo‘yicha ta’lim mazmuniga, fanlarni o‘qitishda milliy-ma’naviy qadriyatlarga oid ma’lumotlardan foydalanish tamoyil va mezonlarini ishiab chiqilishiga e’tibor

beriladi;

- bo'lajak pedagoglarni kasbiy-ma'naviy faoliyatga tayyorlashda kasb-hunarga oid ma'naviy merosdan samarali foydalanish yo'llari va shakllarini asoslash. **Bunda** asosan ulug'allomalarning albatta kamida birorta kasb-hunar egasi bo'lganligi va ular o'z shogirdlaridan ham shuni talab qilganligi haqidagi ma'lumotlarga, shuningdek, "Ustoz-shogird" odobi an'analariga (uning mezonlari, ustozlar haqida rivoyatlar, ustozlar o'g'itlari shogirdning ustoz oldidagi mas'uliyati va h.k.) oid ma'lumotlarga ko'proq e'tibor bermog'i lozim;

- bo'lajak mutaxassislarning milliy-ma'naviy meros haqidagi bilimlarini muntazam ravishda yuksaltirib borishga erishish. **Bunda** qomusiy ilm sohiblari, hadis ilmi sultonlari, mashhur tarixchi va faylasuf olimlar, yozuvchi va shoirlar, mashhur sarkarda va davlat arboblari, Vatan va xalq qahramonlarining bizgacha yetib kelgan ma'naviy hamda moddiy meroslari bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuniga milliy-ma'naviy, ilmiy, ma'naviy-moddiy qadriyatlar sifatida muntazam ravishda singdirib borishga e'tibor beriladi;

- bo'lajak pedagoglarning milliy qadriyatlar bo'yicha nazariy bilimlarni o'zlashtirganlik darajasini aniqlash mezonini ishiab chiqish. **Bunda** milliy qadriyatlardan foydalanish orqali ularning kasbiy bilim, malakalariga qo'yilgan talablar shakllantirilib, ular asosida test savollari tuziladi hamda natijalar 100 balliktizim asosida aniqlanadi;

- milliy-ma'naviy qadriyatlar bo'yicha shakllangan bilimlarni yoshlar ongi va qalbiga singdirishning samarali ko'rinishlarini ishiab chiqish. Bunda bo'lajak mutaxassislarni o'qitishning innovatsion uslub va texnologiyalari bilan qurollantirishga e'tibor beriladi va ular o'z kasbiy faoliyatida bulardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradilar.

Yuqorida bayon qilingan faoliyat yo'nalishlarida ko'rinadiki, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga ma'naviy yetuk qilib tayyorlashda qadriyatlardan muntazam ravishda (o'quv rejasidagi barcha fanlar) foydalanib borishni talab etadi. Bu esa o'ziga xos qadriyatlar tizimini shakllantirishni taqozo etadi.

Qadriyatlar tizimini shakllantirishda bo'lajak pedagoglarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalari hajmi hamda o'qitiladigan fanlar bo'yicha davlat ta'lim standartlari talablari e'tiborga olinadi.

Ushbu soha bo'yicha olib borilgan kuzatishlar va tajribalarimiz natijalari bizga **qadriyatlar tizimini** quyidagicha yo'nalishlarda ifodalashga imkon berdi:

-Islom dini "Qur'oni karim" va muqaddas "Avesto"; "Hadisi sharif" kitoblardagi ma'naviy merosga oid ma'lumotlar;

2. Xalq og'zaki ijodi namunalarida shakllangan milliy-ma'naviy qadriyatlar;

3. Qomusiy olim-donishmandlarning ma'naviy meroslari;

4. Hadis ilmidan yetuk va mashhur donishmandlarning milliy tarbiyashunoslikka oid ma'naviy merosi.

5. Mashhur shoir - yozuvchilar, tarixchi va faylasuflar ijodlari namunalaridan ta'limiy qadriyat sifatida foydalanish.

6.Vatan qahramonlari va davlat arboblarning turmush tarzidagi ibrat-namunasi bo'yicha tizimlashtirilgan milliy-ma'naviy qadriyatlar.

7. Buyuk insonlarning har doim biror-bir kasb-hunar bilan shug'ullanganligi haqidagi qimmatli (hikmatli, e'tiborga molik) ma'lumotlar va ularning o'z shogirdlarini biror kasbni yoki hunarni egallashga da'vat qilganligi haqidagi milliy qadriyatlarga oid materiallar.

8. Amaliy faoliyat tufayli kasb-korini va ilmu hunarini ulug'lash orqali ajdodlarimiz buyuk mazmun-mohiyatli taxalluslarni o'zlaridan keyin qoldiradilar va ular uning hayoti, faoliyatining mazmun-

mohiyatini ifoda etadi va hattoki, shu taxallus bilan tarixda abadiy qolganlar Movaraunnaxrda oz emas boshqacha aytganda ular o'zlariga "Jonli haykal" o'rnatganlar.

9. "Ustoz-shogird odobi" an'alariga oid milliy-ma'naviy qadriyatlar.

Yuqorida bayon qilingan qadriyatlar tizimi - ulug'ajdodlarimiz qoldirgan ma'naviy boyliklar, xalq og'zaki ijodi - ma'naviy tarbiya o'chog'i uyg'unligiga mos ma'lumotlar, urf-odatlar va an'analardan iborat olib, u bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda sodir bo'layotgan barcha hodisa, voqealarga mustaqil munosabat bildiradigan, o'z manfaatini jamiyatimiz manfaati bilan uyg'unlashtira oladigan zakovatli vatanparvar kichik pedagog mutaxassislarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda kasb-hunar kolleji o'quv rejasiga kiritilgan fanlar bloklari, o'quv va pedagogik amaliyotlar bo'yicha dasturlar hamda sinfdan tashqari mashg'ulotlar rejalariga 9 yo'nalishdan iborat milliy qadriyatlarni singdirish jarayonini aniq tasavur qilish uchun uning sxemasini keltirish maqsadga muvofiqdir. Yuqorida bayon qilingan 9 yo'nalishdan iborat milliy qadriyatlar tizimini tegishli fanlar va amaliyotlar dasturlari mavzu va savollari mazmuniga singdirish mexanizmi to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun mazkur tizimga oid materiallar ma'lum prinsiplar talablari asosida saralanishi hamda ulardan foydalanish mezonlari aniqlanishi lozim. Bu esa o'z riavbatida bolajak kichik mutaxassislarning kasbiy-ma'naviy jihatdan tayyorlanganligini baholashga imkon beradi.

Mazkur qadriyatlar tizimi kasb-hunar kolleji o'quvchilariga o'quv rejada ko'rsatilgan barcha fanlar va amaliyotlar bo'yicha o'quv tarbiya jarayonini milliy qadriyatlar asosida tashkil etish orqali kichik mutaxassislarni ma'naviy tayyorlash ishini tizimli asosda tashkil etish imkonini beradi. Jumladan, ushbu o'quv rejaning umumta'lim fanlari blokiga kiruvchi fizika fani namunaviy dasturi bo'yicha darslar va auditoriyadan tashqari darslar mavzu va savollari mazmuniga " Milliy qadriyat tizimi"ning "Qomusiy olim - donishmandlardan hozirgi davrgacha yetib kelgan ma'naviy meroslar" deb nomlangan uchinchi yo'nalish asosida Muhammad al-Xorazmiy, Xorazm Ma'mun akademiyasi gultoj namoyandalari Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino hamda Umar Chag'maniyning statika, dinamika, molekulyar fizika, issiqlik hodisalari, tutash idishlar, vodoprovod, buloklar, faworalar, artezian quduqlari, vakuum (bo'shliq), fizik kattaliklarni o'lchash bo'yicha yaratgan asboblariga doir ilmiy meros bilan bog'liq materiallar singdirilib, kichik pedagog mutaxassislarni ma'naviy tarbiyalash ishini muntazam ravishda amalga oshirishga imkon yaratildi .

Ayni paytda kasb-hunar kollejlari umumta'lim fanlari o'qituvchilari bilan o'tkazilgan suhbatlar, ular pedagogik faoliyatlarining tahlillari umumta'lim fanlari o'qituvchilarining katta qismi milliy qadriyatlar asosida kollej o'quvchilarini ma'naviy tarbiyalash ishiga to'la tayyor emasliklarini ko'rsatmoqda.

Mazkur kamchilikni malum darajada bartaraf etish ko'p jihatdan qayta tayyorlash va malaka oshirish mintaqaviy markazlar professor-o'qituvchilarning ta'lim jarayonini kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik asosida tashkil etishga qay darajada tayyorgarliklariga bog'liqdir. Shu munosabat bilan malaka oshirish tizimida fanlarni o'qitishni kasbiy-pedagogik yo'naltirilganlik asosida tashkil etish "Fizika" fani misolida amalga oshirish imkoniyatlari namoyon qilindi va aniq tavsiyalar ishiab chiqildi .

O'z-o'zidan ravshanki, ushbu ko'p qirrali va murakkab ishni amalga oshirish kasb-hunar kolleji pedagogik jamoasini o'z ustida mustaqil ishlashini hamda pedagogik faoliyatda ta'limning ilmiylik, tarixiylik, ta'limni hayot bilan bog'lash kabi didaktik prinsiplaridan foydalanishni taqozo etadi. Ayni paytda kichik pedagog mutaxassislarni ma'naviy-kasbiy faoliyatga tayyorlashda fanlar asoslari bo'yicha auditoriyadan tashqari va ma'naviy-ma'rifiy ishlarning hissasini yoddan chiqarmaslik kerak.

Ma'naviy-kasbiy yetuk kichik mutaxassislarni tayyorlash o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Shu bois qayd etilgan qadriyatlar tizimi mazmun- mohiyatiga ko'ra mustaqil respublikamiz xalqining milliy qadriyatlarini ulug'lovchi urf-odatlar, an'analari, ilm-fanga bo'lgan intilishi, yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash bo'yicha sa'yi-harakatlari uzoq o'tmishga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Shunday qilib, mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida amalga oshirilayotgan tub islohotlar orqali, uning maxsus, kasb-hunar tizimida kichik pedagog mutaxassislarni ma'nan yetuk kasbiy jihatdan zakovatli etib tayyorlashda "Qadriyatlar tizimi" muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Jiyanqulova R. Pedagog kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash.// Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. №2. -T., 2014. - B-59.
2. Jiyanqulova R. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda milliy qadriyatlardan foydalanish. //Uzluksiz ta'lim. №4. -T., 2014. - B-115.
3. Atakhanova, N. E., Almuradova, D. M., Ziyayev Sh, V., Хамидов, X., & Юсупов, А. (2023). Значения андрогенных рецепторов для прогнозирования выживаемости больных трижды негативным раком молочной железы. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(6), 5-8.
4. Almuradova, D. M., Mukumova, D. I., & Turaeva, X. K. (2022). Karlibaev AO Modern endocrine therapy in locally advanced estrogen or progesterone receptor-positive breast cancer. *Образования и наука в XXI веке*, 24(2), 773-780.
5. Jiyanqulova R.X. Kasb-hunar kollejarida tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda milliy qadriyatlardan foydalanish // «Kasb-hunar ta'limi» IMJ.-T.: 2012. - № 3. -B. 22-25.

